

O'ZBEKISTONDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN DINIY KONFESSIYALAR VA TASHKILOTLAR

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi
Boltayev Abbas Ilhom o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi
Otamurodov Doniyor Odilboy o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiyalar va tashkilotlar faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan. O'zbekistonning diniy hayoti tarixiy jihatdan boy va rang-barang bo'lib, mustaqillik davridan so'ng din erkinligi qonuniy asosda ta'minlangan. Maqolada mamlakatdagi asosiy diniy konfessiyalar (Islom, Xristianlik, Yahudiylik va boshqalar) va ularning faoliyat yuritayotgan diniy tashkilotlari, shu jumladan, masjidlari, ibodatxonalar, diniy ta'lim muassasalari, diniy tashkilotlarning jamiyatdagi o'rni va diniy erkinlikka oid qonunchilik tahlil qilinadi. O'zbekistonning diniy hayoti va diniy tashkilotlarning faoliyati zamonaviy jamiyatda tinchlik va bag'rikenglikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, diniy konfessiyalar, diniy tashkilotlar, Islom, Xristianlik, Yahudiylik, diniy erkinlik, qonunchilik, diniy ta'lim, jamiyatdagi o'rin, bag'rikenglik

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizning barcha fuqarolari haqiqiy e'tiqod erkinligini his eta boshladilar. Bugungi kunda O'zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to'siqlarsiz o'z dinlariga e'tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sobiq sho'ro davrida respublikaizda bor-yo'g'i 87 ta masjid va 2 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozir O'zbekiston musulmonlari idorasi boshqaruvi ostida rasmiy ro'yxatdan o'tgan, barcha qulayliklar yaratilgan 2054 (2019 y.) dan ortiq masjid, 10 ta madrasa va Toshkent Islom isntituti faoliyat ko'rsatib turibdi. Mustaqillik yillarida 110 mingdan ortiq musulmon haj va 80 mingdan ortiq Umra safarini amalga oshirdilar[1]

Shuningdek, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillari ham o'zlari e'tiqod qilayotgn dinlarida emin-erkin ibodat qilmoqdalar. Bugun respublikamizda 16 turdagi 170 dan ziyod noislomiy diniy tashkilotlar rasman faoliyat ko'rsatmoqda: 157 ta xristianlik, 8 yahudiy, 6 baxoiy, 1 Krishnani anglash jamoasi va 1 ta buddaviy ibodatxonasi mavjud.[2]

1999- yil 7- aprel Prezident Farmoniga asosan Toshkent Islom universiteti tashkil etildi. Har yili mazkur Oliy o'quv yurti islom tarixi va falsafasi, diniy qonunchilik, iqtisod va tabiiy fanlar fakul'tetlariga 100 dan ortiq abiturentlarni talabalikka qabul qiladi. Universitet qoshida islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazi, manbalar xazinasini hamda akademik litsey faoliyat ko'rsatmoqda. Toshkent Islom instituti va Buxorodagi Mir Arab oliy madrasasida 366 talaba tahsil oladi. O'qituvchilardan 87 tasidan 12 tasi fan nomzodi, 38 tasi fan magistri. O'rta maxsus islom bilim yurtlarida 1071 talabaga 246 pedagog dars beradi. Ularning 12 tasi fan nomzodi, 33 tasi magistr. ("Xalq so'zi", 2017- yil 16- dekabr)[3]

Umuman, din hozirgi sharoitda muhim ijtimoiy-madaniy hodisadir. Dinning jamiyat ma'naviy-ma'rifiy hayotida tutgan o'rnini bilish uchun uning jamiyat va shaxs hayotida qanday o'rin egallashini, dinning davlatga va shaxsning dinga munosabatini tarixan qanday o'zgarib borganligini ilmiy tahlil qilish lozim bo'ladi

Din axloqiy tarbiya sohasida muhim ahamiyatga ega vazifani bajaradi. Biroq dinni siyosiy maqsadlar uchun niqob qilib olish, diniy davlat barpo etish vositasida yana o'rta asr sakralizatsiya tendentsiyasini ijtimoiy hayotda tiklashga urinish dunyoviy qadriyatlarga asoslangan konstitutsiyamiz va amaldagi qonunlarimizga ziddir.

Diniy e'tiqod bilan bog'liq muammolarga kompleks yondashuv zarur:

1) Mamlakatda demokratiyani rivojlantirish, jamiyatni demokratlashtirish, mavjud siyosiy tizimni barqaror rivojlantirishni taqozo qiladi.

- 2) Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish asosida aholi moddiy turmush darajasini yaxshilash qoloq davlatlarda keskin tus olmoqda.
- 3) Aholining madaniy saviyasini oshirish zarur, chunki diniy aqidaparastlikning muhim manbalaridan biri bu – jaholatdir.[4]

1992-yili Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

1. Vazirlar Mahkamasining “Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish haqida”gi qarori qabul qilindi.
2. 1995- y. Vazirlar Mahkamasining “az-Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmiddin Kubroning 850 yilligi o‘tkazish” bo‘yicha farmoyish chiqdi.
3. 1996- y. Toshkentda Evangel-xristian cherkovining 100 yilligi nishonlandi.
4. Nemis Evangel-lyuteranlar cherkovining (Kirxasi)ning 100 yilligi nishonlandi.
5. 1997- y. Vazirlar Mahkamasining “Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.[5]

O‘zbekiston hududida turli diniy konfessiyalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Islom eng keng tarqalgan din bo‘lib, undan tashqari Xristianlik, Yahudiylik kabi konfessiyalar ham mavjud. Diniy erkinlikni ta‘minlash va davlatning diniy faoliyatga nisbatan neytral siyosati mamlakatda diniy tinchlik va bag‘rikenglikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Diniy tashkilotlar jamiyatda ma‘naviy o‘sish va ahillikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqda. Maqola, shuningdek, diniy tashkilotlarning qonunchilik asosida faoliyat yuritishini ta‘minlash zarurligini ta‘kidlaydi.

Respublikamizning dastlabki tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi» Qonunining 13-moddasida diniy tashkilot kamida o‘n kishidan iborat o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolar tashabbusi bilan tuzilishi qayd etilgan edi. Diniy tashkilotlar jamoat birlashmalaridan ayrim jihatlarida farq qiladi va mas‘uliyati ham kattaroq. Shu bilan birga qonunchilikda belgilangan qoidalar jamiyat rivoji va zamon talabi bilan o‘zgarishi muqarrar. Dunyo davlatlarining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchiligiga e‘tibor qaratilsa, diniy tashkilot tuzish uchun zarur bo‘lgan tashabbuskorlarga qo‘yilgan minimal miqdor turlicha ekanini ko‘rish mumkin. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘istonda 10 nafar, Polsha, Litvada 15, Latviyada 25, Vengriyada 100, Armaniston va Qirg‘izistonda 200, Chexiyada 300, Turkmanistonda 500 nafardan iborat fuqarolar tashabbusi bilangina diniy tashkilot tuziladi. Bu esa, diniy tashkilot tuzish borasidagi qoidalar har bir davlatning o‘z shart-sharoitidan kelib chiqqan holda belgilanishini ko‘rsatadi. Diniy tashkilot tuzilib, ustav (nizom)i qabul qilingach, u bir oylik muddatda Adliya vazirligi yoki uning hududiy boshqarmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim. «O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Qaror asosida diniy tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tish uchun tegishli hujjatlarni adliya organlariga taqdim etadilar. Taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjatlar tuzilgan diniy tashkilotning qonuniyligini o‘rganishga xizmat qiladi. Adliya organlari bir oylik muddatda ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha arizani ko‘rib chiqadi va tashkilot ustavini ro‘yxatdan o‘tkazish, ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish yoki arizani inobatsiz qoldirish haqidagi qarorni qabul qiladi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi» Qonunga ko‘ra ro‘yxatdan o‘tgan va tegishli konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va yo‘naltirib borish uchun ularning O‘zbekiston bo‘yicha yagona markaziy boshqaruv organlari tuzilishi mumkin. Markaziy boshqaruv organi Respublikaning kamida sakkizta hududiy tuzilmasida (viloyat, Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) faoliyat ko‘rsatayotgan, tegishli konfessiyalarning diniy tashkilotlari vakillari ta‘sis yig‘ilishi tomonidan tuziladi.

Qo‘mita har bir shaxsning vijdon va diniy e‘tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga bo‘lgan munosabatidan qat‘i nazar tengligini ta‘minlash, shuningdek diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vazifalarni hal etish vakolati berilgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. U mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq diniy masalalarni hal qilishda yagona siyosatni

amalgaga oshiradi. Bugungi kunda O'zbekistonda Adliya organlaridan rasman ro'yxatdan o'tgan 16 ta diniy konfessiya (Islom, Rus pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Nemislyuteran cherkovi, Arman-apostol cherkovi, To'liq injil xristianlari, Evangelxristian baptistlar cherkovi, Novoapostol cherkovi, Ettinchi kun adventistlari, «Golos bojiy», Iyegovo shohidlari, Koreys protestant cherkovlari, Yahudiylik, Bahoiylik, Krishnani anglash jamiyati, Buddaviylik) faoliyat olib bormoqda. Ularning jamiyat hayotida birdek ishtirok etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratib berilgan. Diniy tashkilotlarni vijdon erkinligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini hisobga olib davlat tomonidan ularga bir qator imtiyozlar ham belgilangan. Jumladan, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunning 16- maddasida diniy tashkilotlar muayyan miqdorda davlat mulkidan foydalanishlari mumkin ekani ko'rsatilgan. Shunga ko'ra, diniy tashkilotlar o'z ehtiyojlari uchun davlat organlari tomonidan shartnoma asosida beriladigan binolar va mol-mulkdan foydalanishga haqlidir. Bu esa tegishli hokimiyat organlari ruxsati bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni [5]ning 27- maddasiga muvofiq tarixiy va madaniy yodgorliklar ob'ektlari va buyumlar diniy tashkilotlarga tekin foydalanish shartnomasi shartlarida berib qo'yilishi ko'zda tutilgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov A.Q., Norbekov A.V. Dinshunoslik. Ma'ruzalar matni. -T., 2003.
2. Norbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008.
3. Len Woods. Handbook of World Religions. Barbour Publishing, Ohio. 2008. – 266p
4. Dunyo dinlari tarixi / tuzuvchilar: Agzamxodjaev S, Rahimjonov D, Muhamedov N. va b. – T.: ToshDSHI, 2011.
5. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma / Ochildiev A. va boshqalar. –T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
6. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(03).
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY TASHKILOTLAR VA BIRLASHMALAR FAOLIYATINING TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH. G'ofirova Farangiz G'ulom qizi.
9. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
10. Omonov B. N., Ochilova G. A., Azamova S. A. SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN //World of Scientific news in Science. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 15-28.
11. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
12. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
13. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.

14. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
15. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
16. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
17. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
18. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.